Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
<i>Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna</i>	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
<i>Ибрагимова З. И.</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'рни	725
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
<i>Xaitova E'zozaxon Baxrom qizi</i>	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
<i>Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'рни	737
<i>Toshpulatova Nargiza Abduraimovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
<i>Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna</i>	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
<i>Jurayeva Umida Yuldashevna</i>	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi	748
<i>Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna</i>	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
<i>Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
<i>Pardaeva Matonat Salimovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
<i>Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi</i>	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqqa oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
Tojiyeva Matluba Mahmud kizi	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
Xamdamova Nilufar Esanovna	
Pedagogik mahorat	908
Zakirova Difuza Ergashboyevna	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
Toshpulatova Mexriniso Kilichevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
Boltayeva Barno Isakulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
Qosimova Aziza Umarali qizi	
Дифференцированный подход как условие для преодоления дислексии у учащихся.....	935
Моминова Тойгул Боходир кизи	
Improving the Methodology of Developing Phonetic Competencies of Primary School Students	939
Zilolaxon Kenjayeva Saminjon kizi	
Bolalar tadbirkorligini rivojlantirishning zaruriyati.....	943
Axmadaliyeva Muxarramoy Olimjon qizi	
Assessing and Monitoring Pedagogical Creativity in Modern Education Processes.....	948
Abdulkhayev Abduvokhid Abdulbori ugli	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirishning milliy an'ana va pedagogik tajribalar asosida tahlili	951
Achilov Obid Muzrobovich	
Maktabgacha ta'lim sohasida inson resurslarini rejalashtirishning ahamiyati va mehnat bozori tendensiyalari tahlili	956
N. Sh. Miryusupova	
Emotsional intellektning ahamiyati va uning psixologik hamda fiziologik xususiyatlari	960
Bahodirova Shahnoza Rustam qizi	
O'zbek tili darslarida o'quvchilarda PISA topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish	964
Kamshat Baymenova	
Pedagogik texnologiyalar zamonaviy o'quv jarayonining muhim omili sifatida	967
Kazakov Ne'mat Normurodovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni shakllantirishda kasbiy refleksiyaning psixologik-pedagogik asoslari	971
Komiljonova Dilyoraxon	
O'zbek xalq dostonlarini interfaol usullar yordamida o'qitish	973
Nurjanova Yulduz Shukirillayevna	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishning tarkibiy-funksional tuzilmasi	976
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich	
Kasbiy maslahat – maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning samarali vositasi sifatida	980
Raxmatova Sevara Abdulloevna, Gulyamov Djaxangir Raxmatullaevich	
Umumkasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari	986
Saydullayeva Shahlo Sobir qizi	



Pedagogik modellashtirishning o'ziga xos jihatlari va nazariy asoslari.....	990
<i>Sharipov A'zamjon Axmadjonovich</i>	
Talabalarda tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirish omillari	994
<i>Valixanov Ilyos Ilxamovich</i>	
Ta'lim texnologiyalarini mashg'ulotlarda qo'llashning o'ziga xos jihatlari.....	998
<i>Valiyev Sarvar Abdusalimovich</i>	
Ishonch – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida	1002
<i>Xo'jamova Kamola To'liqin qizi</i>	
Jahon va O'zbekiston tajribasida kasbiy muloqot kompetensiyalarini shakllantirish yondashuvlari	1006
<i>Rajapov Sulaymon Nuraddin o'g'li</i>	
Iqtisodchilarning kasbiy faoliyatida ingliz tilining o'rni va ahamiyati.....	1010
<i>Samandarova Nargiza Muxammadovna</i>	
Praksiologik yondashuv – pedagogik ta'limning metodologik asosi sifatida.....	1015
<i>Rashidova Zulayho Olimjon qizi</i>	
Talabalarga ingliz tilini o'rgatishda "pen pals" loyihasidan foydalanish modeli	1020
<i>Tuymanova Inobat Fozilovna</i>	
Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish metodlari.....	1024
<i>Ahmadaliyeva Hilolaxon A'zamjon qizi</i>	
O'zbekistonda ingliz tilini o'rganayotgan yosh o'quvchilarda gapirishga bo'lgan xavotir darajasi: rol o'ynash intervensiyasi	1029
<i>Mannapova Maftunaxon</i>	
Ingliz tili darslarida o'quvchilarning grammatik ko'nikmalarini story-based learning usulidan foydalanib shakllantirish metodikasi.....	1033
<i>Xalilova Sevara Kamoliddin qizi</i>	
Integrating the Case Study Method Into Teaching Medical English: an Innovative Pedagogical Research.....	1037
<i>Xoshimova Azizaxon Saxobiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil qilishning ahamiyati va samaradorligi	1041
<i>Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi</i>	
Критерии эффективности системного подхода в образовании и воспитании детей, находящихся на длительном лечении	1044
<i>Алимова Нигора Исраиловна</i>	
Развитие учебной мотивации через дифференцированный подход в преподавании физики.....	1049
<i>А. Б. Камалов, М. П. Серимбетова</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish metodikasi	1053
<i>Astanaqulova Nilufar Dilmurod qizi</i>	
Talabalarda web platformadan foydalanish asosida kompyuterli modellashtirish ko'nikmasini rivojlantirish	1058
<i>Xazratqulov Abduvohid Abdurauf o'g'li</i>	
Bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish	1062
<i>Gulyamova Aziza Anvarovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish muammosining mavjud holati	1066
<i>Utanbayeva Dildora Abdixadirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali jismoniy va ruhiy rivojlantirishning shart-sharoitlari	1070
<i>Umarova Mehriniso Ibragim qizi</i>	



BOSHLANG'ICH SINFLARINI 4K MODELIDA ASOSIDA TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Matqurbonova Sevara Ikromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ta'limida 4K modeli (kritiklik, kreativlik, kommunikatsiya va kollaboratsiya) asosida darslarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Maqolada 4K modeli o'quvchilarni nafaqat bilim bilan ta'minlashi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini shakllantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida ushbu modelning afzalliklari, o'quv jarayonida qo'llash imkoniyatlari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratayotgan innovatsion ta'lim muhiti haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, 4K modeli, kritiklik, kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kompetensiya, innovatsion metodlar.

Abstract: This article discusses the theoretical and practical aspects of organizing lessons based on the 4K model (criticality, creativity, communication, and collaboration) in primary education. The article analyzes the effectiveness of the 4K model in providing students not only with knowledge but also with opportunities for personal development, independent thinking, and a creative approach. In addition, the research provides information about the advantages of this model, its application in the educational process, and the innovative educational environment it creates for primary school students.

Key words: primary education, 4K model, criticality, creativity, communication, collaboration, competence, innovative methods.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты организации уроков по модели 4К (критичность, креативность, коммуникация и сотрудничество) в начальном образовании. Анализируется эффективность модели 4К в обеспечении не только знаний, но и личностного развития учащихся, самостоятельности мышления и творческого подхода. Кроме того, в исследовании представлены сведения о преимуществах данной модели, её применении в образовательном процессе и создаваемой ею инновационной образовательной среде для учащихся начальной школы.

Ключевые слова: начальное образование, модель 4К, критичность, креативность, коммуникация, сотрудничество, компетентность, инновационные методы.

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri – o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va hayotiy tajriba hamda ko'nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalashdir. Aynan shu sababdan maktablardagi eskirgan o'qitish texnikalarini zamonaviy ta'lim metodlariga almashtirish borasida bir qator ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizdagi ta'lim tizimini zamonaviy va xalqaro ta'lim metodlariga moslashtirish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z fikrlarini quyidagicha ifoda etganlar: "Mamlakatimizda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi" [1]. Haqiqatan ham, ta'lim tizimining samaradorligini belgilashda darslarda qo'llanilayotgan metod hamda usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish darsning samaradorlik ko'rsatkichini ikki barobar oshirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf – o'quvchi yoshlarda asosiy bilim, ko'nikma, malaka va dunyoqarashni shakllantiradigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois bu davrda darslarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, o'quvchining nafaqat bilimini, balki tafakkuri va shaxsiy qobiliyatlarini ham rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kunda xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan 4K modeli – kritiklik, kreativlik, kommunikatsiya

va kollaboratsiya elementlaridan iborat bo'lib, u boshlang'ich ta'lim jarayonini yanada samarali va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash – o'quvchilarga o'z bilimlarini tahlil qilish, voqea-hodisalarga turli nuqtai nazardan qarash va muammolarga yechim topish imkonini beradi. Muammoli savollar berish, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, o'yinli topshiriqlardan foydalanish tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kreativlik (ijodiy yondashuv) – boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativlik o'quvchilarning noodatiy fikrlashi, yangi g'oyalar yaratishi va ijodkorlikka intilishida namoyon bo'ladi.

O'qish savodxonligi darslarida ertakni o'z fantaziyasiga asoslanib davom ettirish, tasviriy san'at darsida o'ziga xos tasvir yaratish, matematika darsida turli usullar orqali masala va misollarni yechish – kreativlikni rivojlantiruvchi samarali vositalardir.

Kommunikatsiya (muloqot) – o'quvchilar dars jarayonida o'z fikrini to'g'ri va aniq ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash, savol-javoblarda faol ishtirok etish orqali kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Guruhli ishlar, suhbatlar, rolli o'yinlar va munozaralar kommunikatsiya samaradorligini ta'minlaydi.

Kollaboratsiya (hamkorlikda faoliyat) – boshlang'ich sinfda jamoa bo'lib ishlash, birgalikda vazifalarni bajarish, o'zaro yordam berish jarayonida o'quvchilar faol muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu ularni kelajakda jamiyatda faol ishtirok etishga, birgalikda maqsadlarga erishishga tayyorlaydi ^[2].

An'anaviy darslarda asosan tayyor bilim berishga urg'u qaratilsa, 4K modeliga asoslangan ta'limda esa o'quvchilar faol subyekt vazifasini bajaradi va ta'lim jarayonining markaziga ular qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlari – PISA, PIRLS, TIMSS talablariga tayyorlash, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan ^[3]. Bu esa ta'lim tizimimizning boshlang'ich bosqichidan boshlab 4K modeliga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot va kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin bo'ladi: o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, bilimlarni ongli o'zlashtirish jarayoni tezlashadi, mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi, o'quvchilar o'rtasida do'stona va hamkorlik muhiti shakllanadi, XXI asr kompetensiyalari tarkib topadi, o'qituvchilar zamonaviy metodikaga o'rgatiladi, o'quv dasturlariga ijodiy va tanqidiy fikrlash topshiriqlari kiritiladi, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi, sinfda hamkorlikka asoslangan metodlar qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda, 4K modelini amaliyotda qo'llashda ayrim muammolar ham mavjud: barcha maktablarda moddiy-texnik baza yetarli emas, o'qituvchilarning ijodiy metodlardan foydalanish tajribasi yetarli emas, ayrim holatlarda esa dars yuklamasi yuqori bo'lgani uchun 4K modeliga yetarlicha vaqt ajratilmasligi mumkin. Biroq, yuqoridagi muammolarga qaramay, 4K modelini bosqichma-bosqich joriy etish O'zbekiston ta'lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf darslarini 4K modeli asosida tashkil etishning samaradorligini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqish mumkin: 4K modeli elementlari – darslik – mashq mazmuni – rivojlanadigan ko'nikma.

Kritiklik – tabiatshunoslik – "Agar daraxtlar kesilsa, tabiatga qanday zarar yetadi? Fikrlaringizni yozing" topshirig'i – sabab-oqibatni tushunish, muammoga tahliliy yondashish, mas'uliyat hissi.

Kreativlik – ona tili – "Rasmga qarab hikoya tuzing" topshirig'i – tasavvur qilish, voqeani ijodiy ifodalash, badiiy tafakkurni rivojlantirish.

Kommunikatsiya – o'qish savodxonligi – "She'rni ifodali o'qing va sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling" topshirig'i – nutq madaniyati, fikrni ravon ifodalash, tinglash va bahs qilish madaniyati.

Kollaboratsiya – matematika – "Ko'rsatilgan masalani guruh bilan hamkorlikda yeching" topshirig'i – jamoada ishlash, o'zaro yordam, umumiy yechimga erishish.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf darsliklaridagi oddiy mashqlar ham 4K modelining barcha elementlarini amalda qo'llash imkonini beradi. 1-sinf ona tili darsidagi rasm asosida hikoya tuzish topshirig'i o'quvchilarda kreativlikni, 2-sinf o'qish kitobidagi muhokama vazifasi esa kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantiradi. 3-sinf matematika darsida guruh bo'lib masala yechish orqali bolalar o'rtasida kollaboratsiya, 4-sinf tabiatshunoslik darsidagi muammoli savol orqali esa kritik tafakkur rivojlanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, 4K modelini amaliyotga joriy etish uchun alohida murakkab material yoki qo'shimcha



resurslar talab qilinmaydi. Aksincha, mavjud darsliklarda berilgan mashqlarni zamonaviy yondashuv asosida tahlil qilib, ijodkorlik, hamkorlik, muloqot, shuningdek tanqidiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki hayotiy kompetensiyalarini ham sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 4K modeli – boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion muhit yaratish, shaxsiy rivojlanishni ta'minlash va xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni shakllantirishda eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu modelni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish O'zbekiston ta'lim tizimining istiqboldagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida 4K modelini ta'lim jarayoniga to'liq integratsiya qilish orqali o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda ijtimoiy faol, ijodkor va tanqidiy fikrlovchi yoshlarni voyaga yetkazish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida nafaqat milliy ta'lim tizimining, balki mamlakatning intellektual salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>
2. Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna. "O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda yangi avlod darsliklarining ahamiyati" // 5(7)-2023, "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi qarori. – 2019.
4. Hasanboeva, O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: Fan, 2020.
5. Xodjabekov, U. (2019). Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti.
6. Qodirov, A. (2021). "Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi". Ta'lim va taraqqiyot jurnali.
7. Karimova, R. Boshlang'ich ta'limda savodxonlikni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Fan, 2020.
8. Rahmatullaeva, Sh. Nutq o'stirish asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.